

UDC (UO‘K, YDK): 81.44

TURLI TIZIMLI TILLAR ORASIDA TARJIMA VA UNING LEKSIK-SEMANTIK MUAMMOLARI¹⁵

Ismoilova Onagul Ibrohimovna

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch
davlat universiteti tayanch doktoranti,
Urganch, O‘zbekiston

E-mail: ismoilovaonagul@gmail.com

Orcid ID: 0009-0005-4122-5622

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada turli til oilalariga mansub bo‘lgan va bir qator jihatlariga ko‘ra bir-biridan farq qiluvchi tillar o‘rtasidagi tarjima jarayonining murakkab jihatlarini, ayniqsa, leksik-semantik muammolar chuqur tahlil qilinadi. Shu bilan birga, o‘zbek va ingliz tillari misolida tillar orasidagi farqlar, grammatik va stilistik tafovutlarning tarjima amaliyotiga ta’siri ko‘rib chiqiladi. Asarlarni o‘zbek tilidan ingliz tiliga tarjima qilish jarayonida tarjimonlar duch keladigan sinonimiya, polisemiya, idiomatik iboralar, leksik bo‘shliqlar kabi leksik-semantik hodisalar va ular keltirib chiqaradigan muammolar o‘rganilib, keng qamrovda yoritiladi. Shuningdek, tarixiy-badiiy asarlar matnlarini tarjima qilishda leksik tanlov va terminologik aniqlik muhimligi asoslab beriladi. Bu turdagi asarlar tarjimasi maxsus yondashuvni talab qiladi. Chunki bu matnlarda muallifning uslubi, davr ruhiyati, milliy-madaniy komponentlar, diniy terminologiya, poetik vositalar, tarixiy atamalar va davrga oid leksik birliklar mavjud bo‘ladi. Tarixiy asarlar tarjimasi jarayonida tarjimonda lingvistik kompetensiya bilan bir qatorda madaniy bilim, tafakkur, kontekstual fikrlash va ijodiy yondashuv bo‘lishi zarurligi ta’kidlanadi. Ayniqsa, o‘zbek tilidagi tarixiy asarning ingliz tiliga tarjimasi jarayonida sinonimik qatordan so‘z tanlash alohida o‘rganiladi. Maqola tarjima nazariyasi, tarjima didaktikasi va amaliy tarjimonlik faoliyatida muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

KALIT SO‘ZLAR

Tarjima jarayoni, leksik-semantik muammolar, til oilalari, sinonimiya, polisemiya, frazeologizmlar, leksik bo‘shliqlar, madaniy kompetensiya, terminologik aniqlik, tarixiy matnlarni tarjima qilish, tarixiy-tilshunoslik, tarjimon kompetensiyasi, madaniyatlararo muloqot

Received: May 19, 2025

Accepted: July 6, 2025

Available online:
September 3, 2025

¹⁵**For citation (Iqtibos keltirish uchun, для цитирования):**

Ismoilova O. Turli tizimli tillar orasida tarjima va uning leksik-semantik muammolari. // Komparativistika (Comparative Studies). — 2025. — Vol.2, № 3(7) — B. 212-224.

TRANSLATION BETWEEN LANGUAGES OF DIFFERENT SYSTEMS AND ITS LEXICAL-SEMANTIC PROBLEMS

Ismoilova Onagul Ibrohimovna

Doctoral Student Urgench State University

named after Abu Rayhon Beruni

Urgench, Uzbekistan

E-mail: ismoilovaonagul@gmail.com

Orcid ID: 0009-0005-4122-5622

ABSTRACT

This article thoroughly analyzes the complex aspects of the translation process between languages belonging to different language families and differing in various respects, with a particular focus on lexical-semantic challenges. Using Uzbek and English as examples, it examines the differences between languages and the impact of grammatical and stylistic variations on translation practice. The study extensively explores lexical-semantic phenomena that translators encounter when translating works from Uzbek into English, such as synonymy, polysemy, idiomatic expressions, and lexical gaps, along with the problems they present. Additionally, it substantiates the importance of lexical choice and terminological precision in translating historical and literary texts. The translation of such works demands a specialized approach, as these texts embody the author's style, the spirit of the era, national-cultural elements, religious terminology, poetic devices, historical terms, and period-specific lexical units. The article emphasizes that translating historical works requires not only linguistic competence but also cultural knowledge, critical thinking, contextual understanding, and a creative approach. Particular attention is given to the process of selecting words from synonymous sets when translating historical works from Uzbek into English. This article serves as a crucial methodological foundation for translation theory, translation pedagogy, and practical translation activities.

KEY WORDS

Translation process, lexical-semantic challenges, language families, synonymy, polysemy, idiomatic expressions, lexical gaps, cultural competence, terminological precision, translation of historical texts, historical linguistics, translator competence, intercultural communication.

ПЕРЕВОД МЕЖДУ РАЗНОСИСТЕМНЫМИ ЯЗЫКАМИ И ЕГО ЛЕКСИКО-СЕМАНТИЧЕСКИЕ ПРОБЛЕМЫ

Исмоилова Онагул Иброхимовна

докторант Ургенчского государственного университета

имени Абу Райхона Беруни,

Ургенч, Узбекистан

E-mail: ismoilovaonagul@gmail.com

Orcid ID: 0009-0005-4122-5622

АННОТАЦИЯ	КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА
В данной статье анализируются сложные аспекты процесса перевода между языками, принадлежащими к разным языковым семьям и различающимися по ряду характеристик, в частности, подробно характеризуются связанные с данным видом перевода лексико-семантические проблемы. Наряду с этим, на примере узбекского и английского языков рассматриваются различия между языками и влияние их грамматических и стилистических особенностей на практику перевода. Подробно изучаются и широко освещаются такие усложняющие процесс перевода с узбекского на английский язык лексико-семантические явления, как синонимия, полисемия, идиоматические выражения, лексические лакуны, а также рассматриваются вызываемые ими проблемы. Кроме того, обосновывается важность лексического выбора и терминологической точности при переводе текстов историко-художественных произведений. Перевод произведений этого типа требует особого подхода, поскольку данные тексты передают авторский стиль и дух эпохи, содержат национально-культурные компоненты, религиозную терминологию, поэтические средства, исторические термины и лексические единицы, характерные для описываемого периода. Подчеркивается, что в процессе перевода исторических произведений переводчику необходимы не только лингвистическая компетенция, но и культурологические знания, аналитическое мышление, понимание контекста и творческий подход. Особое внимание при переводе исторического произведения с узбекского языка на английский уделяется выбору слова из синонимического ряда. Статья служит важной методологической основой в теории перевода, дидактике перевода и практической переводческой деятельности.	Процесс перевода, лексико-семантические проблемы, языковые семьи, синонимия, полисемия, идиоматические выражения, лексические лакуны, культурная компетенция, терминологическая точность, перевод исторических текстов, историческое языкознание, переводческая компетенция, межкультурная коммуникация.

KIRISH

Bugungi globallashuv jarayonida tillararo kommunikatsiya, madaniyatlararo muloqot va axborot uzatish faoliyati beqiyos darajada kengaydi. Bu esa tarjima amaliyotining nafaqat lingvistik, balki madaniy, ijtimoiy, psixologik va siyosiy jihatdan ham o'ta dolzarb sohaga aylanishiga olib keldi. Ayniqsa, lingvistik va genealogik jihatdan bir-biridan farq qiluvchi tillar — ya'ni turli til oilalariga mansub tillar o'rtasida olib borilayotgan tarjima jarayoni ko'plab murakkabliklar, ayniqsa leksik-semantik muammolarni keltirib chiqaradi. Ushbu maqolada aynan ana shunday murakkabliklar mohiyati, ularning yuzaga kelish sabablari, hal etish usullari va tarjima nazariyasi doirasidagi yondashuvlar chuqur tahlil qilinadi.

Til oilalari farqlari va tarjima jarayoniga ta'siri. Tillar oilalarga ajratilgan bo'lib, bu tasnif genealogik ya'ni kelib chiqish jihatidan amalga oshiriladi. Masalan, ingliz tili Hind-yevropa til oilasiga kirsa, o'zbek tili turkiy tillar oilasiga mansub. Hind-yevropa tillari oilasiga mansub ingliz tili va turkiy tillar oilasiga kiruvchi o'zbek tilidagi asarlarni bevosita tarjima jarayonida turli qiyinchiliklarga duch keladi. Bu holat, avvalo, ushbu tillarning grammatik qurilishi, leksik-strukturaviy xususiyatlari hamda semantik birliklarining tizimli farqlari bilan izohlanadi (Арипова К., 2024, 284). Ular o'rtasidagi grammatik tuzilma, sintaktik qurilish, morfologik vositalar, semantik tizim, stilistik xususiyatlar bir-biridan keskin farq qiladi. Ingliz tili analitik til bo'lib, so'z tartibiga va yordamchi fe'llarga asoslangan, o'zbek tili esa agglutinatив til bo'lib, qo'shimchalar orqali grammatik va semantik ma'no hosil qiladi. Shu sababli bu ikki til o'rtasida tarjima qilinayotgan matnlarda faqat yuzaki grammatik muvofiqlik emas, balki semantik, pragmatik, madaniy va stilistik jihatlar ham muhim o'rin tutadi.

ASOSIY QISM

Mazkur tadqiqotda turli genealogik til oilalariga mansub tillar — xususan, ingliz va o'zbek tillari o'rtasidagi tarjima jarayonida yuzaga keladigan leksik-semantik muammolarni aniqlash va tahlil qilish maqsad qilingan. Shu munosabat

bilan ishda kontrastiv-lingvistik hamda deskriptiv va komponent tahlil tadqiqot metodlari qo'llanildi.

Tadqiqot doirasida tarjima nazariyasi va amaliyotiga oid nazariy manbalar o'rganildi, mavjud ilmiy qarashlar tahlil qilindi hamda ularning asosida tarjimada uchraydigan leksik-semantik tafovutlarning kelib chiqish sabablari izohlandi. Ayniqsa, semantik maydonlar, kontekstual sinonimiya, ekvivalentlik darajalari, translatsion ko'chishlar va denotativ hamda konnotativ ma'nolar tafovuti singari hodisalarga alohida e'tibor qaratildi. Empirik material sifatida o'zbek tilida yozilgan badiiy-tarixiy matnlar hamda ularning ingliz tiliga qilingan tarjimalari tanlab olindi. Ushbu matnlar asosida leksik birliklarning tarjima jarayonidagi semantik transformatsiyalari tahlil qilindi va tarjimonlar tomonidan amalga oshirilgan muayyan yechimlar ilmiy jihatdan baholandi. Tahlilda sifatli (qualitative) yondashuv asos qilib olindi, ya'ni miqdoriy emas, balki mazmuniy, kontekstual va semantik jihatlar ustuvor ahamiyat kasb etdi. Shuningdek, tarjima jarayonida yuzaga kelgan muammolarni tizimlashtirish orqali umumiy qonuniyatlar aniqlashga harakat qilindi. Natijada, tadqiqot leksik-semantik tafovutlarning tarjima sifatiga qanday ta'sir qilishi va tarjimonning til kompetensiyasi bilan bog'liq jihatlarni ochib berishga xizmat qildi.

Leksik-semantik muammolar: mohiyat va turlari. Tillar orasidagi o'zaro farqlar va so'zlar orasidagi semantik munosabatlar ko'p hollarda til o'rganuvchilar va tarjimonlik faoliyatiga endi qadam qo'yayotgan yosh mutaxassislar uchun qiyinchilik tug'diradi (Nida A., 2001, 58). Tarjimaning vazifasi bir tildagi matnni ikkinchi til vakillariga yetkazib berish bo'lsa, semantik munosabatlarning vazifasi esa mazkur jarayonni yetarli va asliyatdagi mazmunini yo'qotmagan holatda yetkazib berishdan iborat. Leksik-semantik muammolar tarjimada eng ko'p uchraydigan va tarjimon ijodini sinovga soladigan hodisadir. Bunga sabab har bir tilning o'ziga xos semantik tizimi, ma'no maydonlari, sinonimlar qatori, konnotatsiyalari, milliy-madaniy xususiyatlari mavjud. Leksik-semantik tahlillar, odatda, bir so'z shaklining talqin variantlari soni haqida ko'proq yoki kamroq aniq

fikrlarni o'z ichiga oladi, ya'ni bir leksik birlik bilan bog'liq bo'lgan so'zlarni aniqlashga qaratilgan (Muminova D., 2022, 91).

Ushbu bo'limda tarjimada uchraydigan asosiy leksik-semantik muammolarni quyidagicha guruhlash mumkin:

a) Sinonimiya va so'z tanlovi

Ko'pgina tillarda bir ma'noni ifodalovchi ko'plab so'zlar mavjud bo'lib, ular kontekstdagi vazifasi, emotsional rang-barangligi, uslubiy talqini bilan farqlanadi. Tarjimada sinonimlardan to'g'ri foydalanmaslik matnning g'oyasini, ruhini, uslubini buzadi. Masalan, "to die" inglizcha fe'li uchun "o'lmoq", "hayotdan ko'z yummoq", "vafot etmoq" singari sinonimlar mavjud bo'lib, ularning har biri turlicha emotsional va stilistik tusga ega. Bir tildan ikkinchi tilga tarjima mobaynida leksik-semantik tuzilmalar bilan bog'liq muammolar tarjimon faoliyatida muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday muammolar, ayniqsa, ekvivalentga ega bo'lmagan so'zlar tarjima jarayonini murakkablashtiradi. Mazkur jarayon ko'pincha ingliz tilida uchraydi, chunki ushbu til tuzilishida verbal leksemalar asosiy tarkibiy element sifatida qatnashadi. Ular odatda ravishlar, sifatlar, predloglar va boshqa yordamchi unsurlar bilan birgalikda qo'llaniladi. Shu sababli, tarjima jarayonida nafaqat semantik mosliklar, balki ijtimoiy va madaniy kontekstlarni hisobga olish ham muhimdir.

b) Polisemiya (ko'p ma'nolilik)

Bir so'zning bir nechta ma'noga ega bo'lishi tarjimada jiddiy muammo tug'diradi. Ma'no tanlovi kontekst asosida amalga oshirilmasa, tarjima noto'g'ri bo'lishi mumkin. Masalan, ingliz tilidagi "bank" so'zi moliyaviy muassasa yoki daryo sohili degan ikki xil ma'noga ega. Tarjimon kontekstga e'tibor qaratmasdan noto'g'ri tanlov qilsa, matn mazmuni buziladi.

c) Frazologizmlar va idiomalar

Frazologik birliklar har bir tilda o'ziga xos bo'lib, ularning so'zma-so'z tarjimasi asarning mazmunini butkul o'zgartirishi mumkin. Masalan, "kick the bucket" iborasi ingliz tilida "vafot etmoq" ma'nosida ishlatiladi. Uni "chelakni

tepmoq” deb tarjima qilish absurd holatni yuzaga keltiradi. Bunday hollarda tarjimon muqobil iborani o‘zbek tilidan topishi lozim.

d) Leksik bo‘shliqlar

Bir tilda mavjud bo‘lgan tushuncha yoki hodisa boshqa tilda butunlay mavjud bo‘lmasligi mumkin. Masalan, “yoron” so‘zi o‘zbek tilida do‘st va hamfikir degan boy ma’noga ega, lekin ingliz tilida bunday so‘zga to‘liq muqobil topish mushkul. Bu holatda tarjimon tavsifli tarjima, izohli tarjima yoki muqobil ifodadan foydalanishi kerak bo‘ladi.

Turli xalqlarga xos milliy tushunchalarni ifodalovchi ko‘plab so‘z va iboralar davlatlar o‘rtasidagi madaniy, siyosiy-iqtisodiy, savdo va diplomatik aloqalar natijasida tobora keng qamrov kasb etib, tarjima tili sohiblari uchun ham tushunarli bo‘lib bormoqda. O‘zaro genetik mushtaraklikka ega bo‘lmagan, turli til oilalariga mansub tillar o‘rtasida amalga oshiriladigan tarjima jarayonida esa taniqli tarjimon, yozuvchi va adabiyotshunos olim Mirzakalon Ismoilining tarjima faoliyati diqqatga sazovordir. Uning tarjimachilik merosi bir qator tadqiqotchilar tomonidan ilmiy tadqiq qilinishi tarjimonning so‘z tanlash borasidagi mahorati beqiyos ekanidan darak beradi (Nurdinova F., 3/2022, 409). Hatto, chet ellik tarjimashunos olimlar Lilian Voynichning M.Ismoil tomonidan o‘zbek tiliga qilingan romani “So‘na” ni boshqa tillardagi tarjimasidan katta farq qilishi, o‘zbek tarjimonining tarjimasini mukammal ekanini ta’kidlab o‘tishadi.

Tarjimada uchraydigan leksik-semantik muammolarni hal etishda tarjimon faqat lug‘atga emas, balki lingvistik bilim, madaniy kompetensiya, pragmatik sezgi va ijodiy salohiyatga tayanadi. Tarjimashunos D. Ahmedova tarjima jarayonida uchraydigan muammolarni quyidagicha ifodalaydi:

1. Leksik birliklarning boshqa tilda muqobili bo‘lmasligi;
2. Tarjimonga sohaga oid bilim yetishmasligi;
3. Idiomatik iboralarini noto‘g‘ri talqin qilish;
4. Grammatik va stilistik farqlarni tushunmaslik (Akhmedova D., 2021. 76).

Tarjima faoliyatida tarjimon ikki til o‘rtasida oddiy "vositachi" emas, balki ikki madaniyatni bir-biriga yaqinlashtiruvchi ijodkor shaxs sifatida namoyon

bo‘ladi. U nafaqat matnni tarjima qiladi, balki uni qabul qiluvchi auditoriya uchun anglashli va tabiiy shaklga keltiradi. Tarjimonlik san’ati bilim, tajriba, til sezgisi, estetik idrok, psixologik sezgirlik va ijtimoiy madaniy ongning uyg‘unlashgan mahsulidir.

Tarixiy va badiiy matnlar tarjimasi maxsus yondashuvni talab qiladi. Chunki bu matnlarda muallifning uslubi, davr ruhiyati, milliy-madaniy komponentlar, diniy terminologiya, poetik vositalar, tarixiy atamalar va davrga oid leksik birliklar mavjud bo‘ladi. Tarjimon bu elementlarni tahlil etmagan holda amalga oshirilgan tarjima asarning badiiy-estetik qiymatini yo‘qotadi.

Masalan, Alisher Navoiyning asarlarini ingliz tiliga tarjima qilishda uning o‘ziga xos poetik leksikasi, diniy-islomiy terminlari, sufiyona obrazlari, ramzlar tizimi tarjimon oldiga murakkab vazifalarni qo‘yadi. Bunday matnlar tarjimasi faqat lingvistik emas, balki tarix, adabiyot, dinshunoslik va madaniyatshunoslik bilimlarini ham talab qiladi.

Sh.Sirojiddinov badiiy tarjimaga bag‘ishlangan monografiyasida tarjimonning faqat xorijiy tilni bilishigina uni tarjima bilan shug‘ullanishi uchun kamlik qilishi va u ma’naviy bilimlarni egallashi lozimligini ta’kidlab shunday degan: *“Frazeologik birliklar, maqollar, hikmatli so‘zlar, ideomalar – ishorali uchirma iboralarning muqobillarini tanlash tarjimondan tegishli ma’naviy bilimlarga ega bo‘lishni taqozo qiladi”* (Сирождинов Ш., Одилова Г., 2011, 15). Albatta ma’naviy bilimlar tarjimonga nafaqat asliyat matni egalarining balki, tarjima qilinayotgan til egalarining qadriyatlari, turmush tarzi, madaniyati haqida bilimga ega bo‘lish orqali asarning adekvat tarzda tarjima qilinishiga asos bo‘la oladi.

O‘zbek tarjimashunos olimi tarjimonning matnga qarab moslashishi lozimligi, ta’sirchanlikka urg‘u berishi lozimligini ta’kidlaydi: *“Tarjimon o‘z oldiga o‘zbek mumtoz adabiyotini tarjima qilish maqsadini qo‘yar ekan, birinchi navbatda pragmatik ta’sir ko‘rsatish yo‘llarini izlashi, o‘zbek retseptori kabi xorijlik retseptor ham badiiy-estetik zavqni tuyishi uchun qanday yangi usul yoki vosita lozim bo‘lsa*

ishga solishi lozim. Tarjimaning pragmatik qimmatini ana shunda oshadi” (Сирожиддинов Ш., Одилова Г., 2011, 33).

Shuningdek, tarjimon nafaqat alohida soʻz va jummalarni, balki butun boblarni tushunishi, ushbu asarni muallifning boshqa asarlaridan ajratib turuvchi xususiyatlarini, ayrim hollarda esa ularning metodologik bogʻliqligini ham his qilishi lozim. Bunday badiiy mahorat asarda tasvirlangan voqealarni teran anglash va ularni obrazlar orqali aks ettirish, tarixiy asarning gʻoyaviy hamda badiiy vositalarini toʻliq tushunish, ularning vazifalarini ilmiy asosda tahlil qilish, til va badiiy sanʼatning turli qatlamlaridan samarali foydalanish, soʻzning barcha nozik maʼnolarini ilgʻash qobiliyatida namoyon boʻladi. Ayniqsa, tarjima qilayotgan matn sheʼriy matn boʻlsa, bu tarjimondan shoirlik qobiliyatiga ega boʻlishlikni, ikki tilda ham ijod qila olish, satrlar qofiyasini asliyat mazmunini saqlagan holda qayta yarata olishni talab qiladi. A.Navoiy asarlari tarjimalarini oʻrgangan yosh tadqiqotchi U.Abdurahmonova: *“Tarjimonlar Navoiy tilining mohiyatini anglatuvchi inglizcha soʻz va iboralarni diqqat bilan tanlashi, shu bilan birga matnning aniqligi va asl nusxaga sodiqligini taʼminlashi lozim”*, (Abdurahmonova U., 2024, 45) deb taʼkidlaydi. Shu bilan birga nafaqat nazmiy asarlar, balki, tarixiy romanlarning tarjimasiga xos badiiy va metodologik xususiyatlarni qayta tiklash muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa asarning asl nusxasini tushunish va talqin qilishga zamin yaratish bilan birga, ularning asl matnga qanchalik mos kelishini aniqlash bilan bogʻliq masalalar majmuasini oʻrganishga ham xizmat qiladi.

Ilmiy va texnik matnlar tarjimasida leksik-semantik muammolar boshqa tusga kiradi. Bunda muhim jihat — terminlarning aniqligi, izchil ishlatilishi, qisqartmalarning toʻgʻri talqini, xalqaro atamalarining mos keladigan shakllarini topishdan iborat. Ilmiy sohalarda bir soʻzning notoʻgʻri tarjimasi butun matnning mazmunini notoʻgʻri tushunishga olib keladi. Shu sababli, tarjimon sohaga oid chuqur bilimga ega boʻlishi kerak.

Alisher Navoiyning ham bir qator noyob asarlari bir necha xorijiy tillarga tarjima qilinib nashr etilgan. Shular qatorida ilk namunalardan “Lison ut-tayr” dostoni Ye.Fitjerald tomonidan inglizchaga tarjima qilinib, 1899-yilda

AQShda nashr etilgan. Aynan mazkur dostonning nasriy bayoni tarjimasida N.Qambarov va kanadalik navoiyshunos olim Garri Dik hamkorligida amalga oshirildi. Navoiyning hikmatlari, ruboiylari, gʻazallari va “Farhod va Shirin” dostonidan parchalar ingliz tiliga tarjima qilinib, matbuotda eʼlon qilinadi (Bazarov Z., 2020, 19). “Muhokamat ul-lugʻatayn” risolasi 1966-yilda AQShda R.Deveruks tarjimasida kitob holida nashr qilingan boʻlsa, buyuk shoirning “Sabʻai sayyor” dostoni amerikalik professor V.Firman tomonidan ingliz tiliga oʻgirildi. 1988-yilda esa Oʻzbekiston “Vatan” jamiyati Navoiy hikmatlarini M.Bettlin tomonidan amalga oshirilgan inglizcha tarjimasida chop etgan (Xolbekova B., 2013, 2). Oʻzbek adabiyotining eng yuksak namunalari muallifi hisoblanmish Navoiy asarlari Gʻarb va Sharq tillariga tarjima qilinib, oʻrganilib kelayotgan boʻlsa-da, navoiyshunos olim, Mark Toutant fikricha, Gʻarb davlatlarida Boburni koʻproq tanishadi (Эркинов А., 2018, 5).

Amerika xalqi tomonidan foydalaniladigan koʻplab soʻzlar va milliy xarakterga ega tushunchalar globalizatsiya jarayoni taʼsirida xalqaro miqyosda umumqabul qilingan hodisaga aylanib bormoqda. Ushbu leksik birliklar jahon xalqlari tilida oʻz mustahkam oʻrnini topib, global kommunikatsiya vositalarining ajralmas qismiga aylanmoqda. Xalqlarning turmush tarzi va madaniyatining keng ommalashuvida televideniya, radio, kino hamda matbuotning roli beqiyos boʻlib, bu omillar tarjimonlarga maʼlum qulayliklar yaratishi tabiiy.

Tarjima bu dunyo boʻylab maʼlumot almashinuvining eng asosiy quroli sanaladi. Tarjimonlar esa tarjima qilinayotgan ikkita millat orasidagi, ularni bir-biriga bogʻlovchi koʻprik vazifasini bajaruvchi, jamiyat uchun eng zarur boʻlgan kasb egalaridir. Chunki, ular insonlarga bir tilda yaratilgan adabiyot durdonalaridan tortib, tarixiy va madaniy yodgorliklar, ilmiy yangiliklargacha yetkazib berguvchilaridir. Tarjimaning ishonchli, taʼsirchan va boshqa millat vakiliga yetarli darajada tushunarli chiqishi uchun tarjima jarayonida semantik aloqalarning roli beqiyosdir. Arab tarjimon va tilshunosi Ahmed Moneus oʻzining maqolalaridan birida: *“Tarjima, nafaqat matn mazmunini tushunish va boshqa til vakillariga yetkazib berish, balki undan tashqaridagi maʼnolarni ham tahlil qilishni talab*

qiladi” (Moneus A., 2022, 12) - deb tarjima jarayoniga fikrini bildiradi. Tarjimaning semantik munosabatlarga urg‘u bergan holda, uyg‘un tarzda olib borilishi asliyat matnining tarjima matnidagi orginalligiga erishishda asosiy qurol deyishimiz mumkin. Nafaqat tarjima nazariyasi balki, amaliyot jarayonida ham semantik munosabatlar haqiqatda muhim omil sanalib, o‘zaro bir-biri bilan uzviy ravishda bog‘langan.

XULOSA

Turli til oilalariga mansub tillar o‘rtasidagi tarjima jarayoni faqat grammatik jihatdan emas, balki semantik, stilistik, pragmatik va madaniy jihatdan ham chuqur tahlilni talab qiladi. Leksik-semantik muammolar tarjimaning eng dolzarb masalalari sirasiga kiradi. Bunday muammolarni hal etishda tarjimon keng til bilimiga, madaniy va uslubiy sezgirlikka, sohaga oid bilimga va ijodiy salohiyatga ega bo‘lishi zarur. Tarjima — bu faqat texnik jarayon emas, balki san’at va ilmning sintezidir. Uning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi jamiyatlararo muloqot, madaniyatlararo aloqalar va ilmiy integratsiya uchun mustahkam zamin yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Абдурахмонова У. Translation challenges of literary works from Uzbek into English (in the example of A. Navoi’s ruboi) // “Raqamli texnologiyalar davrida tarjimashunoslik va lingvistika: zamonaviy yondashuvlar tadqiqi” nomli ilmiy maqolalar to‘plami. – Самарқанд, 2024.
2. Akhmedova D. Some problems of literary translation in the works of Uzbek writers in the XX century // Web of scientist: International Scientific Research Journal. – 2021. – Vol. 2, No. 11.
3. Moneus A. Semantic and Translation: Theory and Practice // ARTA Journal of Translation and Languages: Interdisciplinary Studies. – 2022. – No. 1 (February).
4. Muminova D. Lexical Problems in Translation // Eurasian Research Bulletin. – 2022. – Vol. 13 (October).
5. Nida A. Contexts in Translating. – Amsterdam; Philadelphia, 2001.

6. Нурдинова Ф. Таржимада сўз танлаш маҳорат хусусида (Е. Л. Войничнинг “Сўна” романининг рус ва ўзбек тиллари таржимаси мисолида) // ФарДУ. Илмий хабарлар. – Фарғона, 2022. – №3.
7. Арипова К. Ўзбек тилидан инглиз тилига билвосита ва бевосита таржималар хусусида // *Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*. – 2024. – Т. 4, №8.
8. Базаров З. Бадиий таржимада лексик-стилистик бўёқдорликни сақлаш муаммолари (А. Қодирийнинг “Ўткан кунлар” романининг инглизча таржималари мисолида): филол. фан. номз. ... дисс. – Самарқанд, 2020.
9. Сирожиддинов Ш., Одилова Г. Бадиий таржима асослари: Монография. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2011.
10. Xolbekova B. O‘zbek tilidan ingliz tiliga tarjimalar tarixidan [Электрон ресурс] // *Ziyouz.com*. – 2013. – 26 окт. – Режим доступа: <https://ziyouz.com> (дата обращения: куни кўрсатилиши керак).
11. Эркинов А. Мумтоз адабиётимиз Фарб олимлари нигоҳида // Ўзбекистон адабиёти ва санъати газетаси. – 2018. – 8 август. – №32–33 (4482–4483).

REFERENCES:

1. Abdurahmonova, U. (2024). Translation challenges of literary works from Uzbek into English (In the example of A. Navoi’s ruboi). In *Raqamli texnologiyalar davrida tarjimashunoslik va lingvistika: zamonaviy yondashuvlar tadqiqi*. Samarkand.
2. Akhmedova, D. (2021). Some problems of literary translation in the works of Uzbek writers in the XX century. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 2(11).
3. Moneus, A. (2022). Semantic and translation: Theory and practice. *ARTA Journal of Translation and Languages: Interdisciplinary Studies*, 1(February),
4. Muminova, D. (2022). Lexical problems in translation. *Eurasian Research Bulletin*, 13(October),

5. Nida, A. (2001). *Contexts in translating*. Amsterdam/Philadelphia: John Benjamins.
6. Nurdinova, F. (2022). Tarjimada soʻz tanlash mahorati xususida (E. L. Voynichning *Soʻna* romanining rus va oʻzbek tillari tarjimasi misolida). *Fergana State University Scientific Bulletin*, 3.
7. Aripova, K. (2024). Oʻzbek tilidan ingliz tiliga bilvosita va bevosita tarjimalar xususida. *Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences*, 4(8).
8. Bazarov, Z. (2020). *Badiiy tarjimada leksik-stilistik boʻyoqdorlikni saqlash muammolari (A. Qodiriy's "Oʻtkan kunlar" novel in English translations)* [Candidate dissertation, Samarkand State University]. Samarkand.
9. Sirojiddinov, Sh., & Odilova, G. (2011). *Badiiy tarjima asoslari*. Tashkent: Mumtoz Soʻz.
10. Xolbekova, B. (2013, October 26). Oʻzbek tilidan ingliz tiliga tarjimalar tarixidan. *Ziyouz.com*. Retrieved [insert date], from <https://ziyouz.com>
11. Erkinov, A. (2018, August 8). Mumtoz adabiyotimiz Gʻarb olimlari nigohida. *Oʻzbekiston adabiyoti va sanʼati gazetasi*, (32–33 [4482–4483]).